## III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2024- yil yanvar- mart oylarida yetishtirilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 2 354,1 mlrd. so‘mni yoki 2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 104,3 foizni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va bu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 2 198,9 mlrd. so‘mni (104,4 %), o‘rmonchilik xo‘jaliklarida 127,8 mlrd. so‘mni (102,9 %), baliqchilik xo‘jaliklarida 27,4 mlrd. so‘mni (104,5 %) tashkil etdi.



### Navoiy viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi



## Navoiy viloyatining qishloq, o‘rmonva baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o‘sish sur’ati




Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – **104,4 %**

O‘rmon xo‘jaligi **102,9 %**

Baliqchilik xo‘jaligi **104,5 %**

2024– yilning yanvar – mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda 104,3 foiz, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar – 104,4 foiz, o‘rmon xo‘jaligi – 102,9 foiz, baliqchilik xo‘jaligi – 104,5 foiz ni tashkil qildi.

## Navoiy viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari umumiy hajmining taqsimlanishi, % da




2024- yilning yanvar- mart yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 93,4 foizi - dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 5,4 foizi - o‘rmon xo‘jaligi, 1,2 foizi - baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.

### Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



## Hududlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi, *mlrd. so‘m*

| | *Jami (mlrd. so‘m)* | *O‘sish sur‘ati, % da* | *Aholi jon boshiga (ming so‘mda)* | *Jami qishloq xo‘jaligida kichik biznes ulushi, % da* |
|---|---|---|---|---|
| **Jami** | **2 354,1** | **104,3** | **2 184,5** | **95,8** |
| Navoiy sh. | 17,7 | 125,7 | 109,0 | 92,7 |
| Zarafshon sh. | 19,9 | 101,7 | 224,6 | 100,0 |
| G‘ozg‘on sh. | 25,7 | 101,6 | 2 775,7 | 85,6 |
| Karmana t. | 291,3 | 110,7 | 2 094,7 | 95,3 |
| Konimex t. | 144,2 | 107,7 | 3 857,0 | 77,4 |
| Qiziltepa t. | 430,5 | 103,2 | 2 656,3 | 99,0 |
| Navbahor t. | 334,8 | 101,9 | 2 766,7 | 98,6 |
| Nurota t. | 180,4 | 104,5 | 2 011,2 | 94,9 |
| Tomdi t. | 129,7 | 105,6 | 8 355,6 | 98,8 |
| Uchquduq t. | 153,8 | 101,0 | 3 906,8 | 99,4 |
| Xatirchi t. | 626,1 | 102,8 | 2 932,1 | 95,8 |

**2024- yil yanvar- mart oylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida kichik biznes ulushi, % da**




**2024 yil yanvar- mart oylarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmida hududlarning ulushi, % da**



## Dehqonchilik

2024- yilning yanvar- mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 92,8 mlrd. so‘mni yoki 2023- yil yanvar-martiga nisbatan 115,7 foizni tashkil etdi.

Yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 4,3 foizga to‘g‘ri keldi.

## Sabzavotlar

**Hajmi, ming tonna**




**O‘sish sur’ati**




2024- yilning yanvar- mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan 0,2 ming tonna, dehqon va tomorqa xo‘jaliklari tomonidan 0,7 ming tonna hamda qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar tomonidan 3,1 ming tonna sabzavotlar yetishtirildi.

## Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi






2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 4,0 ming tonna sabzavotlar (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 24,7 % ko‘p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 77,4 foiz qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sabzavotlar yetishtirish hajmi, tonna



## Chorvachilik

2024- yilning yanvar- mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 2 075,3 mlrd. so‘mni yoki 2023- yil yanvar-martiga nisbatan 103,9 foizni, yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 95,7 foizni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko‘rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining ko‘payishiga, ichki iste’mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to‘ldirishga imkon yaratdi.

### 2024- yilning yanvar- mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish

**Go‘sht (tirik vaznda)**

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**



## Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi






2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 31,2 ming tonna go‘sht (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,1 % ko‘p) yetishtirildi.

Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 83,7 foiz dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.



## Hududlar bo‘yicha go‘sht *(tirik vaznda)* yetishtirish hajmi, tonna



# Sut

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 87,8 ming tonna sut (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 3,5 % ko‘p) yetishtirildi.

Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 89,2 foiz dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.



## Navoiy viloyati bo‘yicha sut yetishtirish hajmi, tonna




## Tuxum

### Hajmi, mln. dona




### O‘sish sur’ati



## Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi






2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 89,0 mln. dona tuxum (2023- yilning yanvar- martiga nisbatan 15,2 % ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy hajmidan 54,1 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.



## Navoiy viloyati bo‘yicha tuxum yetishtirish hajmi, ming dona



# Baliq ovlash

**Hajmi, ming tonna.**




**O‘sish sur’ati**




**Yetishtirilgan mahsulotning xo‘jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**






2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 1,3 ming tonna (2023- yilning yanvar-martiga nisbatan 4,2 % ko‘p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 62,9 foiz qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim.



## Navoiy viloyati bo‘yicha ovlangan baliq hajmi, tonna




**Chorvachilik.** 2024- yil 1- aprel holatiga o‘tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 2,0 foizga (jami 536,4 ming boshni tashkil qildi), qo‘y va echkilar 2,0 foizga (2 443,2 ming bosh), otlar 4,5 foizga (22 063 bosh), parrandalar 4,8 foizga (3,8 mln bosh) ko‘paydi.




### 2024- yil 1- aprel holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni

| | *ming bosh* | *o‘sish sur‘ati, % da* |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramol** | **536,4** | **102,0** |
| shu jumladan: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 47,8 | 104,4 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 473,1 | 101,3 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 15,5 | 121,1 |
| **ulardan sigirlar** | **214,3** | **102,2** |
| shu jumladan: | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 16,0 | 107,2 |

| | *ming bosh* | *o'sish sur'ati, % da* |
|---|---|---|
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 194,2 | 101,3 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 4,1 | 137,6 |
| **Qo'y va echkilar** | **2 443,2** | **102,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 673,1 | 102,6 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 1 393,6 | 100,8 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 376,5 | 105,9 |
| **Otlar (bosh)** | **22 063** | **104,5** |
| shu jumladan: | | |
| Fermer xo'jaliklari | 9 327 | 106,6 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 10 853 | 101,0 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1 883 | 115,5 |
| **Parrandalar** | **3 755,4** | **104,8** |
| shu jumladan: | | |
| Fermer xo'jaliklari | 446,9 | 109,0 |
| Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | 2 076,4 | 100,1 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1 232,1 | 112,2 |

Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 88,2 foizni, fermer xo'jaliklarida esa 8,9 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 90,6 va 7,5 foizni, qo'y va echkilar 57,0 va 27,5 foizni, otlar 49,2 va 42,3 foizni, parrandalar 55,3 va 11,9 foizni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar- mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vazn hisobida 31,2 ming tonna go'sht (2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan 3,1 foizga ko'p), qariyib 87,8 ming tonna sut (3,5 foizga ko'p), 89,0 mln. dona tuxum (15,2 foizga ko'p), 178,8 ming dona qorako'l teri (4,3 foiz ko'p) , 1,3 ming tonna baliq (4,2 foizga ko'p) ovlandi.



## 2024- yil yanvar- mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari

| | *miqdori* | *o‘sish sur‘ati, % da* |
|---|---|---|
| **Go‘sht (tirik vaznda), ming tn.** | **31,2** | **103,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 2,7 | 107,0 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 26,1 | 101,7 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2,4 | 116,5 |
| **Sut, ming tn.** | **87,8** | **103,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 7,1 | 115,7 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 78,3 | 101,9 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2,4 | 132,2 |
| **Tuxum, mln. dona** | **89,0** | **115,2** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 10,5 | 111,4 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 48,1 | 100,6 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 30,4 | 152,1 |
| **Qorako‘l teri, ming dona** | **178,8** | **104,3** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 17,6 | 109,0 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 150,8 | 100,9 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 10,4 | 180,1 |
| **Ovlangan baliq, tonna** | **1 349,7** | **104,2** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo‘jaliklari | 441,3 | 105,0 |
| Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari | 59,0 | 122,9 |
| Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 849,4 | 102,7 |

**2024-yil 1-aprel holatiga xo‘jalik toifalari bo‘yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *Fermer xo‘jaliklari* | | *Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari* | | *Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar* | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *ming bosh* | *o‘sish sur‘ati, % da* | *ming bosh* | *o‘sish sur‘ati, % da* | *ming bosh* | *o‘sish sur‘ati, % da* |
| Yirik shoxli qoramollar | 47,8 | 104,4 | 473,1 | 101,3 | 15,5 | 121,1 |
| Sigirlar | 16,0 | 107,2 | 194,2 | 101,3 | 4,1 | 137,6 |
| Qo‘ylar va echkilar | 673,1 | 102,6 | 1 393,6 | 100,8 | 376,5 | 105,9 |
| Otlar boshda | 9 327 | 106,6 | 10 853 | 101,0 | 1 883 | 115,5 |
| Parrandalar | 446,9 | 109,0 | 2 076,4 | 100,1 | 1 232,1 | 112,2 |

**2024- yil 1- aprel holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parrandalar bosh soni**

**Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)**



### shu jumladan: sigirlar (ming bosh)




### Qo‘ylar va echkilar, ming bosh




### Otlar, bosh



## Parrandalar, ming bosh




## Go‘sht, ming tonna




## Sut, ming tonna



**Tuxum, mln. dona**




**Qorako‘l teri, ming dona**




**2024- yil yanvar- mart oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish**

Barcha hududlarda chorvachilik mahsulotlari (go‘sht, sut, tuxum) yetishtirishning o‘sishi asosan dehqon va fermer xo‘jaliklari hisobiga bo‘lib, go‘sht yetishtirish umumiy hajmida ularning ulushi 92,2 foizni, sut yetishtirishda 97,3 foizni, tuxum yetishtirishda 65,9 foizni tashkil etdi.

**Fermer xo‘jaliklari.** 2024- yil yanvar- mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi 212,9 mlrd. so‘mni yoki 2023-yil yanvar-martiga nisbatan 107,2 foizni tashkil qildi. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari umumiy hajmida fermer xo‘jaliklarining ulushi 9,8 foizni tashkil etdi.

2024- yil 1- aprel holatiga fermer xo‘jaliklarida 47,8 ming bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 16,0 ming bosh sigir, 673,1 ming bosh qo‘y va echkilar, 9 327 bosh ot, 446,9 ming bosh parrandalar mavjud.



## 2024- yil yanvar-mart oylarida fermer xo‘jaliklari tomonidan yetishtirilgan asosiy turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari

| | Yanvar- mart | | | | O‘sish sur‘ati, % da |
|---|---|---|---|---|---|
| | 2023- yil | | 2024- yil | | |
| | tonna | umumiy hajmidagi ulushi, % da | tonna | umumiy hajmidagi ulushi, % da | |
| Don | - | - | - | - | - |
| Kartoshka | - | - | - | - | - |
| Sabzavot | 208 | 6,6 | 225 | 5,7 | 108,2 |
| Poliz | - | - | - | - | - |
| Meva | - | - | - | - | - |
| Uzum | - | - | - | - | - |
| Paxta | - | - | - | - | - |
| Go‘sht, tirik vaznda | 2 476 | 8,2 | 2 650 | 8,5 | 107,0 |
| Sut | 6 142 | 7,2 | 7 107 | 8,1 | 115,7 |
| Tuxum, ming dona | 9 392 | 12,2 | 10 467 | 11,8 | 111,4 |
| Qirqib olingan jun | - | - | - | - | - |
| Qorako‘l teri, dona | 16 179 | 9,4 | 17 630 | 9,9 | 109,0 |
| Pilla | - | - | - | - | - |
| Olingan asal | - | - | - | - | - |
| Ovlangan baliq | 420,4 | 32,4 | 441,3 | 32,7 | 105,0 |

## STATISTIK KO'RSATKICHLARGA IZOHLAR

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari** – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida va qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

**Dehqonchilik mahsuloti** – hisobot davrida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va boshqa dehqonchilik mahsulotlarining qiymatini hamda ko'p yillik yosh ko'chatlarni o'stirish qiymati va yil boshidan yil oxirigacha tugallanmagan yetishtirish qiymatlarining o'zgarishi yig'indisidir.

**Chorvachilik mahsuloti** – mollar, parrandalar va boshqa chorva mollarini o'stirish, sut, tuxum, jun, asal va boshqa chorvachilik mahsulotlari yetishtirish qiymatlarini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi indekslarini hisoblashda ularning solishtirma narxlardagi qiymatidan foydalaniladi.

**Ovchilik** – ovchilik va yovvoyi hayvonlarni tutish, bu sohalarda xizmat ko'rsatish shuningdek, parvarishxona va fermalarda hayvonlarni saqlash, ko'paytirish va davolash xarajatlari hisobga olinadi.

**O'rmon xo'jaligi** – o'rmon va o'rmon resurslaridan foydalanish kabi faoliyat turlarini o'z ichiga oladi. O'rmon xo'jaliklari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'rmonlarning holatini yaxshilash, ularni uzluksiz yangilash, zararkunandalar, kasalliklar va noqonuniy kesishdan himoya qilish, sanitariya va yong'inga qarshi dasturlarni ishlab chiqarish kiradi.

O'rmon xo'jaligi mahsulotlariga terak, eman, qayin, sosna, qoraqarag'ay va boshqa shu kabi daraxtlar ko'chatlarini olish va yetishtirish ham hisobga olinadi. Shuningdek, yovvoyi holda o'suvchi qo'ziqorin va tryufellar, rezavor mevalar, yong'oqlar va boshqalarni terib olingani ushbu tarmoqda hisobga olinadi.

**Baliqchilik xo'jaligi** – ovlangan baliq, suv bioresurslari va akvakultura sohalarining mahsuloti va ko'rsatilgan xizmatlar hajmini shuningdek, ushbu sohani rivojlantirish, zaxiralarni ko'paytirish va yaxshilashni o'z ichiga oladi.

**Qishloq xo'jaligi ekinlarining yig'ilgan yalpi hosili** qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar, fermer va dehqon va tomorqa xo'jaliklarida asosiy va takroriy,

bog‘larning qator oralaridagi qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yig‘ib olingan mahsulotlar hajmini o‘z ichiga oladi.

**Fermer xo‘jaliklari** – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonun hujjatlarida ta‘qiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** – oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a‘zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi hamda dehqon xo‘jaligi a‘zolarining istagiga ko‘ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin.

**Tomorqa xo‘jaligi** - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyekti.

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar** – qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo‘jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo‘jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

**Mollar bosh soni** – xo‘jalik toifalari bo‘yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o‘z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo‘y va echkilar, cho‘chqalar va h.k.)

**Go‘sht yetishtirish** – so‘yish uchun sotilgan hamda o‘z xo‘jaligida so‘yilgan barcha turdagi qishloq xo‘jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o‘z ichiga oladi.

**Sut yetishtirish** – yosh mollarga ichirish uchun sog‘ib olingan sut va og‘iz sutini qo‘shgan holda, haqiqatda sog‘ib olingan sigir, echki, qo‘y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi yetishtirishga kiritilmaydi.

**Tuxum yetishtirish** – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorda jo‘ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o‘z ichiga oladi.

**Jun yetishtirish** – xo‘jalikning ichki ehtiyojlariga sarflangani hamda junni saqlash va tashish jarayonida yo‘qotilganini qo‘shgan holda, qo‘y, echki, tuyalardan haqiqatda qirqib olingan

natura vazndagi (qirqib olingandan keyingi vaznda) barcha junlarni o‘z ichiga oladi, bunga tullash juni, echki tiviti hamda takroriy qirqib olingan junlar ham qo‘shiladi.

**Qorako‘l teri yetishtirish** – uch kunligida so‘yilgan qorako‘l zotli qo‘zilarning terilarini o‘z ichiga oladi, bunda asosiy mahsulot qorako‘l teri hisoblanadi, olingan go‘sht esa so‘yish uchun yetishtirish hajmiga qo‘shilmaydi;

**Asal yetishtirish** – asalarilar tomonidan yig‘ilgan, ham uyalardan chiqarib olingan, ham asalarilarga qishki-bahorgi davrlarda ozuqa uchun qoldirilgan asal miqdorini o‘z ichiga oladi;

**Baliqchilik mahsuloti** – ovlangan baliq mahsulotlari miqdori bilan aniqlanadi.